

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**VAZIRLAR MAHKAMASINING “OLIIY TA’LIMNING DAVLAT TA’LIM
STANDARTLARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA” 2001-YIL 16-AVGUSTDAGI 343-SON
QARORIGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi **Qonuniga** muvofiq Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlarini ro‘yobga chiqarish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqib, iqtisodiyot sohalarining modernizatsiyalashuv sharoitida kadrlar iste’molchilarining talablarini oliy ta’lim mazmuniga tezkor joriy etilishiga tegishli sharoitlar yaratish, oliy ta’lim davlat ta’lim standartlarini xalqaro amaliyotdagi akademik standartlar bilan uyg‘unlashtirish hamda ularning uzviyligini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2001-yil 16-avgustdagi 343-son **qaroriga ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Vazirlik va idoralar bir oy muddatda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.I. Ikramov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2015-yil 10-yanvar,
3-son

Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-yanvardagi 3-son **qaroriga**
ILOVA

**Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”
2001-yil 16-avgustdagi 343-son qaroriga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. **Qarorda:**

a) 2-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlarini, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalari va fanlar dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, ular asosida darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratish”;

b) 4-banddagi “bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining davlat ta’lim standartlari” so‘zlari “ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. **1-ilovada:**

a) **mundarijaning:**

5-bandidagi “ta’lim dasturlari” degan so‘z “o‘quv rejalari va fanlar dasturlari” degan so‘zlarga almashtirilsin;

8-bandidagi **ikkinchi** va **uchinchi xatboshilari** chiqarib tashlansin;

b) **kirishdagi** “109-son” so‘zlaridan keyin “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2004-yil 24-iyundagi 293-son” so‘zlari qo‘shilsin;

v) 1-bandning **oltinchi xatboshidagi** “(bakalavriat yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari uchun davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, o‘quv fanlari dasturlari va boshqalar)” so‘zlari “(ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari

va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari, o'quv fanlari dasturlari va boshqalar)" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) 3-bandning:

sakkizinchi xatboshidagi "ta'lim dasturini" so'zlari "o'quv rejalari va fanlar dasturini" so'zlari bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi xatboshidagi "ta'lim dasturlarini" so'zlari "o'quv rejalari va fanlar dasturini" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'n birinchi xatboshidagi "ta'limning bakalavriat muayyan yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bakalavr yoki magistr" so'zlari "muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'n uchinchi xatboshidagi "ta'lim dasturi" so'zlari "o'quv rejalari va fanlar dasturi" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'n to'rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

o'n beshinchi — yigirma oltinchi xatboshilar tegishli ravishda o'n to'rtinchi — yigirma beshinchi xatboshilar deb hisoblansin;

o'n to'rtinchi xatboshidagi "ta'lim dasturining" so'zlari "o'quv rejalari va fanlar dasturlarining" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'n beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"o'quv rejasi — oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat";

yigirmanchi xatboshidagi "ta'lim dasturining" so'zlari "o'quv rejalari va fanlar dasturlarining" so'zlari bilan almashtirilsin;

yigirma birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"yakuniy davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash";

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Stajirovka (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish) — magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrnlarni eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot olib borishi";

d) 4.1-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"4.1. Standartlar toifalari.

Oliy ta'lim standartlari quyidagi toifalarga bo'linadi:

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari:

— Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar;

— Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

• Oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari — ta'lim sohasining davlat ta'lim standartlari;

Muayyan ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

• zarvara (titul);

• mundarija;

• muayyan ta'lim sohasi (soha tarkibi)ning umumiy tasnifi;

• bitiruvchilarning soha bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;

• o'quv reja tuzilmasi;

• kadrlar tayyorlash sifatini baholash.

Ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti ikkita (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) qismdan iborat bo'ladi";

e) 4.2-bandning **uchinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“• oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlari”;

j) 4.3-bandning **ikkinchi xatboshidagi** “ta'lim bakalavriat yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi” so'zlari “ta'limning ta'lim sohalari davlat” so'zlari bilan almashtirilsin;

z) **5-bandning** nomlanishidagi “ta'lim dasturlari” so'zlari “o'quv rejalari va fanlar dasturlari” so'zlari bilan almashtirilsin;

i) **5.1-bandda:**

ikkinchi xatboshidagi “ta'lim dasturlari” so'zlari “o'quv rejalari va fanlar dasturlari” so'zlari bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi — o'n birinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejalari va fanlar dasturini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uning o'quv rejaloriga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart”;

y) **5.1.1-bandda:**

o'n oltinchi va o'n yettinchi xatboshilaridagi “bakalavriat” so'zidan keyin “ta'lim” so'zi qo'shilsin;

yigirma birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“• ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori konyunkturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fanlar dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlashi lozim”;

k) **5.2-band** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“5.2. Magistratura

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko'zda tutgan holda shakllantiriladi.

Magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalari va fanlar dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari va fanlar dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

O'quv rejalar va fanlar dasturlari majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Talabalarning o'quv rejalar va fanlar dasturlarini o'zlashtirishida o'quv fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

Magistratura mutaxassisliklari uning o'quv rejaloriga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart”;

l) **5.2.1-bandning:**

birinchi xatboshidagi “Ta'lim dasturi” degan so'zlar “O'quv rejaning o'quv fanlari” degan so'zlarga almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“Stajirovka ilmiy tadqiqot ishlari taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o‘tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Stajirovka:

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- iqtisod, fan, madaniyat va sog‘liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;
- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;
- kasbga samarali moslashuvni ta‘minlashi lozim.

Bunda stajirovkaga yo‘llangan magistratura talabasi o‘quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarishi ko‘zda tutiladi”;

m) 6.1-bandning **sakkizinchi** va **o‘n uchinchi xatboshidagi** “bakalavriat” so‘zidan keyin “ta‘lim” degan so‘z qo‘shilsin;

n) quyidagi mazmundagi 6.3-band qo‘shilsin:

“6.3. Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha malaka talablari oliy ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi”;

o) **7.1-band** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“7.1. Bakalavriat

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanishi lozim.

O‘qishning normativ muddati to‘rt yil bo‘lgani holda o‘quv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

O‘quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

- nazariy ta‘lim — 63 — 70%;
- attestatsiya — 8 — 10 %;
- ta‘til — 12 — 16 %;
- malaka amaliyoti — 6 — 12 %;
- bitiruv malakaviy ishi — 2-3%.

Nazariy ta‘lim hajmi bilim sohalariga qarab fanlar bloklari bo‘yicha quyidagi jadvalga muvofiq taqsimlanadi:

| Bloklar nomi | Bilim sohalarini bo‘yicha % hisobida | | | | | |
|--|--------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|--------------------------|--|------------------|
| | Gumanitar soha | Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq | Ishlab chiqarish va texnik soha | Qishloq va suv xo‘jaligi | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot | Xizmatlar sohasi |
| Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar | 23 — 25 | 15 — 20 | 15 — 17 | 15 — 17 | 15 — 20 | 15 — 20 |
| Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar | 8 — 25 | 10 — 15 | 20 — 25 | 20 — 25 | 10 — 15 | 10 — 15 |
| Umumkasbiy fanlar | 33 — 50 | 50 — 55 | 35 — 50 | 35 — 50 | 45 — 50 | 45 — 50 |
| Ixtisoslik fanlar | 9 — 10 | 10 — 15 | 10 — 15 | 10 — 15 | 10 — 15 | 10 — 15 |
| Qo‘shimcha fanlar | 5 — 7 | 5 — 7 | 5 — 7 | 5 — 7 | 5 — 7 | 5 — 7 |

Ta‘lim yo‘nalishining “Umumkasbiy fanlar” yoki “Ixtisoslik fanlar” bloki tarkibidagi fanlarga mos bo‘lgan “Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” va “Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar” bloki fanlari uchun ajratilgan o‘quv yuklama hajmi mazkur ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasining “Umumkasbiy fanlar” yoki “Ixtisoslik fanlar” bloki tarkibiga o‘tkazilishi mumkin.

O‘quv yilida ta‘til davrining umumiy hajmi 6 — 10 hafta qilib belgilanadi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi”;

p) 7.2-bandning:

ikkinchi xatboshidagi “Kunduzgi” degan so'z “Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi)” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“• ilmiy faoliyat — 50 — 55%.”;

o'n beshinchi va o'n oltinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“• tanlov fanlari — 13 — 30%.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti(stajirovka)ni o'tash tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi”;

r) 8.1-bandning:

ikkinchi xatboshida “bakalavriat” degan so'zdan keyin “ta'lim” degan so'z qo'shilsin;

to'rtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“yakuniy davlat nazorati oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha ularning o'quv rejalariga muvofiq ravishda o'quv fanlari bo'yicha davlat attestatsiyasi, bakalavriat talabasi uchun bitiruv malakaviy ishi yoki magistratura talabasi uchun dissertatsiya himoyasini o'z ichiga oladi”;

s) 1 va 2-jadvallar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. 2-ilovada:

a) Mundarijaning 5-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori

Bilim sohasi: Gumanitar soha — 100 000

Ta'lim sohasi: Pedagogika — 110 000

Ta'lim sohasi: Gumanitar fanlar — 120 000

Ta'lim sohasi: Matematika — 130 000

Ta'lim sohasi: Tabiiy fanlar — 140 000

Ta'lim sohasi: San'at — 150 000

Bilim sohasi: Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq — 200 000

Ta'lim sohasi: Sotsiologiya va psixologiya — 210 000

Ta'lim sohasi: Jurnalistika va axborot — 220 000

Ta'lim sohasi: Iqtisod — 230 000

Ta'lim sohasi: Huquq — 240 000

Bilim sohasi: Ishlab chiqarish-texnik soha — 300 000

Ta'lim sohasi: Muhandislik ishi — 310 000

Ta'lim sohasi: Ishlab chiqarish texnologiyalari — 320 000

Ta'lim sohasi: Kompyuter texnologiyalari va informatika — 330 000

Ta'lim sohasi: Arxitektura va qurilish — 340 000

Ta'lim sohasi: Aloqa va axborotlashtirish, telekommunikatsiya texnologiyalari — 350 000

Bilim sohasi: Qishloq va suv xo'jaligi — 400 000

Ta'lim sohasi: Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi — 410 000

Ta'lim sohasi: Qishloq xo'jaligida menejment — 420 000

Ta'lim sohasi: Qishloq xo'jalik texnikasi — 430 000

Ta'lim sohasi: Veterinariya — 440 000

Ta'lim sohasi: Irrigatsiya va melioratsiya — 450 000

Bilim sohasi: Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot — 500 000

Ta'lim sohasi: Sog'liqni saqlash — 510 000

Ta'lim sohasi: Ijtimoiy ta'minot — 520 000

Bilim sohasi: Xizmatlar sohasi — 600 000

Ta'lim sohasi: Xizmat ko'rsatish sohasi — 610 000

Ta'lim sohasi: Transport — 620 000

Ta'lim sohasi: Atrof-muhit muhofazasi — 630 000

Ta'lim sohasi: Hayotiy faoliyat xavfsizligi — 640 000

Ta'lim sohasi: Harbiy ta'lim — 650 000”;

b) 1.1-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“1.1. Davlat, jamiyat va shaxsning amaldagi va istiqboldagi ehtiyojlariga, shuningdek, yangi talab qilinayotgan yo‘nalishlar, birinchi navbatda, yuqori va innovatsion texnologiyalar sohasi bo‘yicha mehnat bozori kon‘yukturasi hamda professional kadrlar tayyorlashning jahon tendensiyalariga muvofiq oliy ta‘limning O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini tartibga soladi”;

v) 1.2-bandning **uchinchi xatboshidagi** “joylashtirishning” degan so‘z “bandligining” degan so‘zga almashtirilsin;

g) 2-bandda:

uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘z DSt 6.01.1:2007. O‘zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Asosiy qoidalar;”;

to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘z DSt 6.01.2:2007. O‘zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Tasniflagich ishlab chiqish va yuritish tartibi.”;

d) 3.1-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“3.1. Klassifikator — oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxati. Unda oltita bilim sohasi nazarda tutilgan:

1. Gumanitar soha.

2. Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.

3. Ishlab chiqarish va texnik soha.

4. Qishloq va suv xo‘jaligi.

5. Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot.

6. Xizmatlar sohasi.

j) 3.3-bandning:

ikkinchi xatboshidagi “ta‘lim dasturi” so‘zlari “o‘quv rejalar va fanlar dasturi” so‘zlariga almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “ta‘lim dasturi” so‘zlari “o‘quv rejalar va fanlar dasturi” so‘zlariga almashtirilsin;

z) 4.1-bandda “vazirligiga” so‘zidan keyin “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda” so‘zlari qo‘shilsin;

i) 4.2-bandning:

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi va beshinchi xatboshilari tegishli ravishda uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“bakalavriat yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o‘quv rejasi loyihalari va boshqa o‘ziga xos belgilari”;

y) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori

| Bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari nomi | Kod | |
|---|--|-----------------------------------|
| | Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari | Magistratura mutaxassisliklari |
| | 5-bosqich | 5A-bosqich |
| GUMANITAR SOHA | 100 000 | |
| Pedagogika | 110 000 | |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Matematika o'qitish metodikasi</i> | 5110100 | |

| | | |
|--|----------------|----------|
| • Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (matematika) | | 5A110101 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi</i> | 5110200 | |
| • Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (fizika va astronomiya) | | 5A110201 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Kimyo o'qitish metodikasi</i> | 5110300 | |
| • Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (kimyo) | | 5A110301 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Biologiya o'qitish metodikasi</i> | 5110400 | |
| • Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya) | | 5A110401 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Geografiya va o'qitish metodikasi</i> | 5110500 | |
| • Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) | | 5A110501 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Tarix o'qitish metodikasi</i> | 5110600 | |
| • Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix) | | 5A110601 |
| • Ta'lim yo'nalishi: <i>Informatika o'qitish metodikasi</i> | 5110700 | |
| • Ta'limda axborot texnologiyalari | | 5A110701 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi</i> | 5110800 | |
| • Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati | | 5A110801 |
| • Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi | | 5A110802 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Pedagogika va psixologiya</i> | 5110900 | |
| • Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) | | 5A110901 |
| • Pedagogika va psixologiya | | 5A110902 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Kasb ta'limi (yo'nalishlar bo'yicha)</i> | 5111000 | |
| • Kasb ta'limi nazariyasi va metodikasi (mutaxassisliklar bo'yicha) | | 5A111001 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Musiqa ta'limi</i> | 5111100 | |
| • Musiqa ta'limi va san'at | | 5A111101 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>O'zbek tili va adabiyoti</i> | 5111200 | |
| • O'zbek tili va adabiyoti | | 5A111201 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha)</i> | 5111300 | |
| • Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha) | | 5A111301 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha)</i> | 5111400 | |
| • Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha) | | 5A111401 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Chaqiriqqacha harbiy ta'lim</i> | 5111500 | |
| • Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chaqiriqqacha harbiy ta'lim) | | 5A111501 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi</i> | 5111600 | |
| • Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) | | 5A111601 |
| • Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) | | 5A111602 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish</i> | 5111700 | |
| • Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) | | 5A111701 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Maktabgacha ta'lim</i> | 5111800 | |

| | | |
|--|----------------|----------|
| • Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) | | 5A111801 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Defektologiya</i> | 5111900 | |
| • Maxsus pedagogika, defektologiya (mutaxassisliklar bo'yicha) | | 5A111901 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Jismoniy madaniyat</i> | 5112000 | |
| • Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi | | 5A112001 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Mehnat ta'limi</i> | 5112100 | |
| • Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (mehnat ta'limi) | | 5A112101 |
| Gumanitar fanlar | 120 000 | |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha)</i> | 5120100 | |
| • Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha) | | 5A120101 |
| • Lingvistika (tillar bo'yicha) | | 5A120102 |
| • Mumtoz filologiya (turlari bo'yicha) | | 5A120103 |
| • Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik | | 5A120104 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha)</i> | 5120200 | |
| • Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (tillar bo'yicha) | | 5A120201 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)</i> | 5120300 | |
| • O'zbekiston tarixi | | 5A120301 |
| • Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) | | 5A120302 |
| • Davlat boshqaruvi va mahalliy o'z-o'zini boshqaruv (faoliyat turi bo'yicha) | | 5A120303 |
| • Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (mamlakatlar bo'yicha) | | 5A120304 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Arxeologiya</i> | 5120400 | |
| • Arxeologiya | | 5A120401 |
| • Etnografiya, etnologiya va antropologiya | | 5A120402 |
| • Etnogenez (o'zbek xalqining etnik tarixi) | | 5A120403 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Falsafa</i> | 5120500 | |
| • Falsafa tarixi (yo'nalishlar bo'yicha) | | 5A120501 |
| • Falsafa (qo'llash sohasi) | | 5A120502 |
| • Etika va estetika | | 5A120503 |
| • Ontologiya, gnoseologiya va logika | | 5A120504 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Dinshunoslik</i> | 5120600 | |
| • Islom tarixi va manbashunosligi | | 5A120601 |
| • Dinshunoslik | | 5A120602 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Jahon siyosati (mintaqalar bo'yicha)</i> | 5120700 | |
| • Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat | | 5A120701 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Sharq falsafasi va madaniyati</i> | 5120800 | |
| • Sharq falsafasi va madaniyati | | 5A120801 |
| Matematika | 130 000 | |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Matematika</i> | 5130100 | |

| | | |
|---|----------------|----------|
| • Matematika (yoʻnalishlar boʻyicha) | | 5A130101 |
| • Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika | | 5A130102 |
| • Differensial tenglamalar va matematik fizika | | 5A130103 |
| Taʼlim yoʻnalishi: <i>Amaliy matematika va informatika</i> | 5130200 | |
| • Matematik modellashtirish va sonli usullar | | 5A130201 |
| • Amaliy matematika va axborot texnologiyalari | | 5A130202 |
| Tabiiy fanlar | 140 000 | |
| Taʼlim yoʻnalishi: <i>Biologiya (turlari boʻyicha)</i> | 5140100 | |
| • Biologiya (fan yoʻnalishi boʻyicha) | | 5A140101 |
| • Mikrobiologiya va virusologiya | | 5A140102 |
| • Ixtiologiya va gidrobiologiya | | 5A140103 |
| • Biotexnologiya | | 5A140104 |
| • Biofizika | | 5A140105 |
| • Biokimyo | | 5A140106 |
| • Genetika | | 5A140107 |
| Taʼlim yoʻnalishi: <i>Fizika</i> | 5140200 | |
| • Nazariy fizika | | 5A140201 |
| • Fizika (yoʻnalishlar boʻyicha) | | 5A140202 |
| • Geliofizika va quyosh energiyasidan foydalanish | | 5A140203 |
| • Kondensatsiyalangan muhitlar fizikasi va materialshunoslik (turlari boʻyicha) | | 5A140204 |
| • Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi, tezlashtiruvchi texnika | | 5A140205 |
| • Elektronika | | 5A140206 |
| Taʼlim yoʻnalishi: <i>Mexanika</i> | 5140300 | |
| • Nazariy mexanika | | 5A140301 |
| • Deformatsiyalanuvchi qattiq jism mexanikasi | | 5A140302 |
| • Suyuqlik va gaz mexanikasi | | 5A140303 |
| Taʼlim yoʻnalishi: <i>Astronomiya</i> | 5140400 | |
| • Astronomiya (tadqiqot yoʻnalishi boʻyicha) | | 5A140401 |
| Taʼlim yoʻnalishi: <i>Kimyo</i> | 5140500 | |
| • Kimyo (fan yoʻnalishi boʻyicha) | | 5A140501 |
| • Materiallar va moddalar kimyosi (materiallar boʻyicha) | | 5A140502 |
| • Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi | | 5A140503 |
| Taʼlim yoʻnalishi: <i>Geografiya</i> | 5140600 | |
| • Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (oʻrganish obyekti boʻyicha) | | 5A140601 |
| • Geografiya (oʻrganish obyekti boʻyicha) | | 5A140602 |
| Taʼlim yoʻnalishi: <i>Gidrometeorologiya</i> | 5140700 | |
| • Meteorologiya, iqlimshunoslik, agrometeorologiya (faoliyat turlari boʻyicha) | | 5A140701 |
| • Hidrometeorologiya (faoliyat turi boʻyicha) | | 5A140702 |
| Taʼlim yoʻnalishi: <i>Geologiya</i> | 5140800 | |
| • Umumiy va hududiy geologiya (fan yoʻnalishlari boʻyicha) | | 5A140801 |
| • Geotektonika va geodinamika | | 5A140802 |
| • Geokimyo, foydali qazilmalarni qidirishning geokimyoviy usullari | | 5A140803 |

| | | |
|---|----------------|----------|
| • Mineralogiya, kristallografiya, petrografiya | | 5A140804 |
| • Uran geokimyosi va mineralogiyasi | | 5A140805 |
| • Geologik s'yomka va foydali qazilmalar konlarini qidirish | | 5A140806 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Geofizika</i> | 5140900 | |
| • Geofizika, foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari | | 5A140901 |
| • Seysmologiya va seysmometriya | | 5A140902 |
| • Neft va gaz geofizikasi | | 5A140903 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Tuproqshunoslik</i> | 5141000 | |
| • Tuproqshunoslik (tadqiqot turi bo'yicha) | | 5A141001 |
| • Eksperimental agrokimyo | | 5A141002 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> | 5141100 | |
| • Gidrologiya (o'rganish obyektlari bo'yicha) | | 5A141101 |
| • Hidrogeologiya (o'rganish obyekti bo'yicha) | | 5A141102 |
| • Suv va sel omborlarini ishlatish | | 5A141103 |
| • Hidravlika va muhandislik gidrologiyasi | | 5A141104 |
| San'at | 150 000 | |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Bastakorlik san'ati</i> | 5150100 | |
| • Bastakorlik san'ati | | 5A150101 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>San'atshunoslik (turlari bo'yicha)</i> | 5150200 | |
| • Teatr san'ati | | 5A150201 |
| • Musiqa san'ati | | 5A150202 |
| • San'at nazariyasi va tarixi (turlari bo'yicha) | | 5A150203 |
| • Muzeyshunoslik, tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash | | 5A150204 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Aktyorlik san'ati (turlari bo'yicha)</i> | 5150300 | |
| • Aktyorlik san'ati (turlari bo'yicha) | | 5A150301 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Rejissyorlik (turlari bo'yicha)</i> | 5150400 | |
| • Rejissyorlik (turlari bo'yicha) | | 5A150401 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Dirijyorlik (turlari bo'yicha)</i> | 5150500 | |
| • Dirijyorlik (turlari bo'yicha) | | 5A150501 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Vokal san'ati (turlari bo'yicha)</i> | 5150600 | |
| • Vokal san'ati (turlari bo'yicha) | | 5A150601 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha)</i> | 5150700 | |
| • Fortepiano (organ) | | 5A150701 |
| • Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha) | | 5A150702 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Rangtasvir (turlari bo'yicha)</i> | 5150800 | |
| • Rangtasvir (turlari bo'yicha) | | 5A150801 |
| • Kino va telefilmning tasviriy yechimi | | 5A150802 |
| • Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi | | 5A150803 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Dizayn (turlari bo'yicha)</i> | 5150900 | |
| • Dizayn (turlari bo'yicha) | | 5A150901 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Grafika (turlari bo'yicha)</i> | 5151000 | |
| • Dastgoh va kitob grafikasi | | 5A151001 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Haykaltaroshlik (turlari bo'yicha)</i> | 5151100 | |
| • Haykaltaroshlik (turlari bo'yicha) | | 5A151101 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Amaliy san'at (turlari bo'yicha)</i> | 5151200 | |
| • Tasviriy va amaliy bezak san'ati (turlari bo'yicha) | | 5A151201 |

| | | |
|---|----------------|----------|
| • San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash | | 5A151202 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Xoreografiya (turlari bo'yicha)</i> | 5151300 | |
| • Xoreografiya san'ati va xoreografiya (turlari bo'yicha) | | 5A151301 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Texnogen san'at (turlari bo'yicha)</i> | 5151400 | |
| • Ovoz rejissorligi (turlari bo'yicha) | | 5A151401 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Kino-teleoperatorlik</i> | 5151500 | |
| • Kinooperatorlik | | 5A151501 |
| • Teleoperatorlik | | 5A151502 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Xalq ijodiyoti (turlari bo'yicha)</i> | 5151600 | |
| • Xalq ijodiyoti (turlari bo'yicha) | | 5A151601 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish</i> | 5151700 | |
| • Madaniyat va san'at sohasi menejmenti | | 5A151701 |
| IJTIMOIIY SOHA, IQTISOD VA HUQUQ | 200 000 | |
| <i>Sotsiologiya va psixologiya</i> | 210 000 | |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Sotsiologiya</i> | 5210100 | |
| • Sotsiologiya (yo'nalishlar bo'yicha) | | 5A210101 |
| • Ijtimoiy tizim va jarayonlarning axborot va psixologik xavfsizligi | | 5A210102 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> | 5210200 | |
| • Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) | | 5A210201 |
| <i>Jurnalistika va axborot</i> | 220 000 | |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha)</i> | 5220100 | |
| • Jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha) | | 5A220101 |
| • Xalqaro jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha) | | 5A220102 |
| • Televideniye va radio eshittirish | | 5A220103 |
| • Noshirlik ishi va muharrirlik | | 5A220104 |
| • Axborot xizmatlari texnologiyalari (faoliyat turlari bo'yicha) | | 5A220105 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Arxivshunoslik</i> | 5220300 | |
| • Hujjatchilik, hujjatshunoslik va arxivshunoslik | | 5A220301 |
| <i>Iqtisod</i> | 230 000 | |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> | 5230100 | |
| • Iqtisodiy nazariya | | 5A230101 |
| • Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | | 5A230102 |
| • Makroiqtisodiyot | | 5A230103 |
| • Mikroiqtisodiyot | | 5A230104 |
| • Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti | | 5A230105 |
| • Ekonometrika | | 5A230106 |
| • Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari | | 5A230107 |
| • Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish | | 5A230108 |
| • Iqtisodiyotda matematik metodlar | | 5A230109 |
| • Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti | | 5A230110 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> | 5230200 | |

| | | |
|--|----------------|-----------------|
| • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | | 5A230201 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish (tarmoqlar bo'yicha)</i> | 5230300 | |
| • Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish(tarmoqlar bo'yicha) | | 5A230301 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> | 5230400 | |
| • Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | | 5A230401 |
| • Lizing | | 5A230402 |
| • Logistika | | 5A230403 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Bojxona ishi (faoliyat turlari bo'yicha)</i> | 5230500 | |
| • Bojxona ishi (faoliyat turlari bo'yicha) | | 5A230501 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Moliya</i> | 5230600 | |
| • Davlat moliyasini boshqarish | | 5A230601 |
| • Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori (sohalar bo'yicha) | | 5A230602 |
| • Investitsiyalarni boshqarish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | | 5A230603 |
| • Xalqaro moliya | | 5A230604 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Bank ishi</i> | 5230700 | |
| • Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha) | | 5A230701 |
| • Bank hisobi va audit | | 5A230702 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Soliqlar va soliqqa tortish</i> | 5230800 | |
| • Soliqlar va soliqqa tortish | | 5A230801 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> | 5230900 | |
| • Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | | 5A230901 |
| • Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | | 5A230902 |
| • Budjet hisobi va nazorati | | 5A230903 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)</i> | 5231000 | |
| • Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) | | 5A231001 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar (mintaqalar va faoliyat turlari bo'yicha)</i> | 5231100 | |
| • Jahon iqtisodiyoti (mintaqalar va faoliyat turlari bo'yicha) | | 5A231101 |
| • Tashqi iqtisodiy faoliyat (tarmoqlar va faoliyat turlari bo'yicha) | | 5A231102 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Sug'urta ishi</i> | 5231200 | |
| • Sug'urta ishi | | 5A231201 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Pensiya ishi</i> | 5231300 | |
| • Pensiya ishi | | 5A231301 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> | 5231400 | |
| • Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | | 5A231401 |
| Ta'lim yo'nalishi: <i>Baholash ishi</i> | 5231500 | |
| • Baholash ishi va riyeltorlik (obyektlar bo'yicha) | | 5A231501 |

| | | |
